

## IQTISODIY SUDLARDA SODDALASHTIRILGAN TARTIBDA ISH YURITISHNING PROTSESUAL XUSUSIYATLARI

**Jumayeva Gulasal Saydulla qizi**

*Toshkent shahar Yakkasaroy tuman  
adliya bo'limi YuXKM bosh yuriskonsulti*

Ilmiy tadqiqot ishining dolzarbligi. Jahonda iqtisodiy ishlarni sudda ko'rish va hal etishning tezkorligini ta'minlash, sudda ish yuritishni soddalashtirish va ixchamlashtirish orqali sudlar tomonidan inson huquqlarini samaraliu himoya qilish, sud ishlarini yuritishning oqilona muddatlarini belgilash, sud ishlarini olib borish jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish tendensiyalari kuchayib bormoqda. Fuqarolik hamda iqtisodiy sud ishlarini soddalashtirish bo'yicha anglo-amerika va kontinental huquq tizimida ayni vaqtda sudga qadar yoki suddan tashqari muzokaralar olib borishga, shuningdek da'vo summasi yuqori bo'lmagan sud ishlarida taraflarning ishtirokisiz yozma dalillar asosida sud qarorlarining chiqarilishi orqali sudyalarning ish hajmini kamaytirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Avvalo shuni ta'kidlab o'tishimiz joizki, jahonning ko'plab mamlakatlari, xususan, Yevropa davlatlarining aksariyatida iqtisodiy nizolar fuqarolik sudlarida ko'rib hal qilinadi. Hozirgi kunda dunyoda sudlarning inson huquqlarini himoya qilishdagi rolini oshirish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlashda qonuniy, asosli va adolatli hal qiluv qarori qabul qilish, sudlarni ixtisoslashtirish, ish ko'rishning ixchamlashtirilgan tartib-taomillarini belgilash, fuqarolik sud ishlarini yuritishga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish, nizolarni sudgacha hal qilish mexanizmlarini tatbiq etish bilan bog'liq qoidalarni belgilash ustida tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, iqtisodiy sudlarda soddalashtirilgan tartibda ish yuritish asoslarining joriy etilishi orqali sudyalarning ish hajmini kamaytirish, ishni sudda muhokama qilish bosqichlarini optimallashtirish orqali sud xarajatlarini kamaytirish, sud qarorlariga qo'yilgan protsessual talablarning to'liq bajarilishiga, shuningdek sud qarorlari ustidan berilayotgan shikoyat va protestlarning oldini olishga erishish, sud qarorlarining vaqtida ijro etilishini ta'minlash bo'yicha fuqarolik hamda iqtisodiy protsessual huquqi sohasida ilmiy izlanishlar mavjud.

Sud ishlarini, xususan, iqtisodiy sudlarda ishlarni ko'rish tartibini soddalashtirish, ya'ni sud orqali himoyaning eng qulay shart-sharoitlarini yaratish masalasi yaqin-yaqingacha dolzarb masala hisoblanib kelgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2022-yildagi statistik ma'lumotlariga ko'ra, birgina Toshkent shahrida iqtisodiy sudlar tomonidan birinchi instansiya

sudida 31085 ta ish ko'rib chiqilgan. Respublikada bu ko'rsatkich 403340 tani tashkil qiladi. Protsessual muddatlar hamda iqtisodiy sudlarda ko'riladigan ishlarning murakkabligi hisobga olib qaralganda, sudlar zimmasiga juda og'ir yuk yuklanadi, bu esa, o'z navbatida fuqarolarning huquqlari himoyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining maqsadi O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual qonunchiligida soddalashtirilgan tartibda ish yuritish institutining huquqiy tabiatini o'rganish orqali undagi mavjud muammolarni aniqlash va xorijiy tajribani kuzatgan holda ularga huquqiy yechimlar taklif qilishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-martda qabul qilingan "Mamlakatda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash bo'yicha qo'shimcha choratadbirlar qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuniga binoan, O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi 5 moddadan iborat "Soddalashtirilgan tartibda ish yuritish" deb nomlangan 231 -bob bilan to'ldirildi. Ushbu qo'shimcha kiritilgunga qadar iqtisodiy sudlarda ishlar umumiy tartibda va buyruq tartibida ko'rib chiqilgan. Umumiy tartibda nizoli talablar ko'rib chiqilsa, buyruq tartibida nizosiz talablar hal etilar edi. Mazkur qo'shimcha bilan iqtisodiy sud ish yurituviga da'vo summasi kam bo'lgan nizolar bo'yicha soddalashtirilgan ish yuritish tartibi kiritildi. Endilikda da'voning bahosi yuridik shaxslarga nisbatan – eng kam oylik ish haqining yigirma baravaridan, yakka 10 tartibdagi tadbirkorlarga nisbatan esa – besh baravaridan oshmasa, da'vo arizalari bo'yicha ishlar soddalashtirilgan ish yuritish tartibida ko'rib chiqilishi lozim. Ushbu o'zgartirishlar kiritilgunga qadar esa, da'vo ishlari da'vo summasidan qat'i nazar da'vo ishlarini yuritishning umumiy qoidalari bo'yicha amalga oshirib kelingan edi.

Iqtisodiy sudning sudyalari ish hajmining ortishi iqtisodiy sudlar tizimini optimallashtirish, iqtisodiy nizolarni sudga qadar hal etish turlarini rivojlantirish hamda ayrim turdagi nizosiz, murakkab bo'lmagan ishlarni hal qilishning soddalashtirilgan tartib-taomillarini iqtisodiy protsessual qonunchiligida mustahkamlashni taqazo etar edi. Ish hajmining ortishi iqtisodiy sudlar tomonidan ayrim protsessual huquq normalariga to'la rioya qilmasdan qarorlar qabul qilish, ishlarni lozim darajada tayyorlamasdan iqtisodiy ishlarni sudda ko'rib chiqish, sudda ishtirok etuvchi shaxslarni sud majlisi vaqti va joyi haqida xabardor qilmasdan ishni ko'rish holatlarini keltirib chiqarishi mumkin. Huquqshunos olim M.Mamasiddiqov soddalashtirilgan tartibda ish yuritish ahamiyatiga alohida to'xtalib, ishlarni sudda ko'rish va hal etish nafaqat sudyalari sonini ko'paytirish orqali, balki sud ishlarini hal etishning

soddalashtirilgan va jadallashtirilgan tartibtaomillarini joriy etish evaziga ham jadallashishi mumkinligi haqida to'xtalib o'tgan.

Da'voni soddalashtirilgan tartibda ko'rib chiqishning asosiy mezonini – uning bahosida. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksning 2032–moddasiga muvofiq, da'voning bahosi yuridik shaxslarga nisbatan – bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan, yakka tartibdagi tadbirkorlarga nisbatan esa – besh baravaridan oshmasa, da'vo arizalari bo'yicha ishlar soddalashtirilgan ish yuritish tartibida ko'rib chiqilishi lozim. Qoidaga binoan, korporativ nizolar bo'yicha ishlar va huquqiy ta'sir chorasini qo'llash to'g'risidagi ishlar soddalashtirilgan ish yuritish tartibida ko'rib chiqilmasligi belgilab qo'yilgan. N.A.Azizovning fikricha, iqtisodiy ishlarning tarafi sifatida fuqarolar ham ishtirok etishlari mumkin. Biroq, fuqarolar korporativ nizolarda taraf sifatida ishtirok etadi. Shu sababli ham korporativ nizolar bo'yicha ishlar va huquqiy ta'sir choralarini qo'llash to'g'risidagi ishlarga soddalashtirilgan tartib qo'llanilmaydi<sup>14</sup>. Quyida keltiriluvchi ayrim holatlar mavjud bo'lmaganda, da'vogarning iltimosnomasiga ko'ra, javobgarning roziligi bilan boshqa ishlar ham soddalashtirilgan tartibda ko'rib chiqilishi mumkin.

Soddalashtirilgan tartibda ish yuritishga monelik qiluvchi holatlar quyidagilar hisoblanadi va bunda sud ishni da'vo ishini yuritishning umumiy qoidalari bo'yicha ko'rish haqida ajrim chiqaradi:

agar protsessda uchinchi shaxsning ishga kirishishi to'g'risidagi iltimosnomasi qanoatlantirilgan bo'lsa;

soddalashtirilgan tartibda ko'rib chiqilishi mumkin bo'lmagan qarshi da'vo qabul qilingan bo'lsa;

ishni soddalashtirilgan tartibda ko'rish davlat siri, tijorat siri yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirning oshkor bo'lishiga olib kelsa;

qo'shimcha holatlarni aniqlash yoki qo'shimcha dalillarni tekshirish, shuningdek dalillarni ular turgan joyda ko'zdan kechirish va tekshirish, ekspertiza tayinlash yoki guvohlarning ko'rsatuvlarini eshitish zarur bo'lsa;

bildirilgan talab boshqa talablar bilan bog'liq bo'lsa, shu jumladan uchinchi shaxslarga taalluqli bo'lsa yoki mazkur ish bo'yicha qabul qilingan sud hujjati bilan uchinchi shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlari buzilishi mumkin bo'lsa.

Soddalashtirilgan ish yuritish tartibida ko'rib chiqiladigan ish bo'yicha da'vo arizasi tegishli talablarga muvofiq bo'lishi lozim. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi IPKning 149-moddasida keltirilgan talablar soddalashtirilgan tartibda ish yuritishga oid da'vo arizasiga ham taalluqli bo'lib, unga ko'ra, da'vo arizasi yozma shaklda bo'lishi, da'vogari yoki uning vakili tomonidan imzolani, unda quyidagilar ko'rsatilishi lozim:

- 1) ariza berilayotgan sudning nomi;
- 2) ishda ishtirok etuvchi shaxslarning nomi, joylashgan yeri yoki yashash joyi;
- 3) agar da'vo baholanishi lozim bo'lsa, da'voning bahosi;
- 4) da'vo talablariga asos bo'lgan holatlar;
- 5) da'vo talablarining asoslarini tasdiqlovchi dalillar;
- 6) undirilayotgan yoki nizolashilayotgan summaning hisob-kitobi;
- 7) da'vogarning qonunchilikka asoslab keltirgan talablari, da'vo bir nechta javobgarga nisbatan taqdim etilganda esa ularning har biriga nisbatan talablar;
- 8) javobgar bilan nizoni sudgacha hal qilish tartibiga rioya etilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar, agar bu shu toifadagi nizolar uchun qonunda yoki shartnomada nazarda tutilgan bo'lsa;
- 9) ilova qilinayotgan hujjatlarning ro'yxati.

Da'vogar o'zaro bog'liq bir necha talabni bitta da'vo arizasiga birlashtirishga haqli. Faqat, yuqorida aytib o'tganimizdek, da'vo arizasida talablarning barchasi soddalashtirilgan tartibda ko'rilishi mumkin bo'lgan ishlar doirasidan bo'lishi kerak. Agar aksincha bo'lsa, ish da'vo ishini yuritishning umumiy qoidalari bo'yicha ko'riladi. Shu o'rinda da'vo arizasiga ilova qilinadigan hujjatlarga ham to'xtalib o'tishni o'rinli deb bilamiz. O'zbekiston Respublikasi IPKning 151-moddasiga binoan, da'vo arizasiga quyidagilarni tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinadi:

- 1) belgilangan tartibda va miqdorda davlat boji va pochta xarajatlari to'langanligini;
- 2) da'vo arizasining ko'chirma nusxasi va unga ilova qilingan hujjatlar javobgarga yuborilganligini;
- 3) javobgar bilan nizoni sudgacha hal qilish (talabnoma yuborish) tartibiga rioya etilganligini, agar bu shu toifadagi nizolar uchun qonunda yoki shartnomada nazarda tutilgan bo'lsa;
- 4) da'vo talablariga asos bo'lgan holatlarni;
- 5) da'vogarning yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tganligini;
- 6) da'vo arizasini imzolash vakolatini, agar u vakil tomonidan imzolangan bo'lsa.

Soddalashtirilgan tartibda ish yuritishning maqsadi – eng avvalo sudlarning, shuning bilan birga protsess ishtirokchilarining vaqtlarini va ish yuritish uchun ketadigan mablag'larni tejashdan iborat. Biroq soddalashtirilgan tartibda iqtisodiy sud ishlarini yuritishning barcha vazifalari bajarilishi, iqtisodiy protsessning asosiy tamoyillariga rioya qilinishi shart. Shu o'rinda

soddalashtirilgan ish yuritishni iqtisodiy protsessning ayrim prinsiplaridan, ya'ni taraflarning tortishuvi va teng huquqliligi kabi muhim prinsiplardan chetga chiqish, deb talqin qilmaslik kerak. Soddalashtirilgan tartibda ish yuritish iqtisodiy sud ishlarini yuritishning umumiy qoidalariga muvofiq bo'lishi kerak.

Ushbu tartibda ish yuritishning eng birinchi xususiyatlaridan biri – korporativ nizolar bo'yicha ishlar va huquqiy ta'sir choralari qo'llash to'g'risidagi ishlar bunday tartibda ko'rib chiqilmasligidadir. Agar nazariy jihatdan olib qarasa, korporativ nizolar bo'yicha ishlar ko'rilayotganda ishtirokchilar sud protsessida ishtirok etishlari shart. Huquqiy ta'sir chorasini qo'llash to'g'risidagi ishlar esa da'vo tartibida yuritiladigan ishlar sirasiga kirmaganligi sababli uni soddalashtirilgan tartibda ko'rib chiqish maqsadga muvofiq emas. Sud soddalashtirilgan ish yuritish tartibidagi ishni sud muhokamasini o'tkazmasdan, taraflarni chaqirtirmasdan va ularning tushuntirishlarini eshitmasdan ko'rib chiqadi. Ushbu ish yuritish tartibi ayrim jihatlari bilan buyruq tartibida ish yuritishga o'xshab ketsa-da, farqli jihatlari mavjud. Birinchidan, buyruq tartibida ish yuritishda nizosiz ishlar ko'rib chiqiladi. Masalan, sud buyrug'i sudya tomonidan soliq qarzini undirishni yuridik shaxslarning va fuqarolarning mol-mulkiga qaratish to'g'risida talab bildirilgan bo'lsa, soliq qarzining miqdori qonun hujjatlarida belgilangan eng kam miqdordan kam bo'lmasligi lozim, ya'ni qarzni undirishni soliq to'lovchilarning mol-mulkiga qaratish uchun soliq bo'yicha qarzlarning eng kam miqdorlari muvofiq tasdiqlangan. Bu shuni anglatadiki, hatto sud buyrug'i tartibidagi ishlarda ham talab summasi yuridik shaxslarga eng kam oylik ish haqining 20 baravaridan ortiq bo'lishi lozim. Soddalashtirilgan ish yuritish tartibida esa bu miqdor 20 baravardan kamni tashkil etishi zarur.

Soddalashtirilgan ish yuritish tartibining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri bu IPKning 2033 -moddasiga ko'ra, da'vog'ar da'vo arizasiga qo'shimcha ravishda da'vo arizasi va unga ilova qilingan hujjatlarning ko'chirma nusxalarini "javobgarga topshirilganligi haqidagi dalil"ni taqdim etishi zarur. Biroq aynan ushbu masalada keyingi normada da'vo arizasi bilan javobgar "javobgar tegishli tarzda xabardor qilingan"ligi haqidagi tushunchalar ishlatilgan. Bu yerda javobgarga topshirilganligini tasdiqlovchi dalil ma'nosi ikki xil ma'noda, ya'ni imzolab topshirish yoki pochta aloqasi orqali topshirish deb tushunilishi mumkinligi bahsli masala hisoblanadi. IPKning 137-moddasiga binoan, arizachi (kreditor) sud buyrug'ini berish to'g'risidagi ariza berganida qarzdorga arizaning ko'chirma nusxasini topshirishi shart degan qoida mavjud. Qarzdor – yuridik shaxsga sud buyrug'ini berish to'g'risidagi arizaning ko'chirma nusxasi topshirilganligining dalili bo'lib, uning rahbari yoki xodimining muhr (muhr mavjud bo'lganda) yoki shtamp bilan tasdiqlangan imzosi, qarzdor – fuqaroga

esa uning shaxsiy imzosi hisoblanadi. Shu sababli ham soddalashtirilgan ish yuritish tartibida da'vo arizasi va 20 unga ilova qilingan hujjatlarning ko'chirma nusxalarini javobgarga topshirilganligini tasdiqlashda yuqoridagi analogiyadan foydalanish zarur deb hisoblaymiz yoki uni soddalashtirilgan ish yuritish tartibi xususiyatlaridan kelib chiqib, xabardor qilishning boshqa shakllarini ham ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. Ushbu holatda da'vo arizasi javobgarga topshirilganligini tasdiqlovchi dalil ilova qilinmasa qanday oqibatlarga olib kelishi maxsus bobda alohida qayd etib o'tilmagan. Umumiy tartibga ko'ra, Iqtisodiy protsessual kodeksning 151- moddasiga muvofiq, da'vo arizasiga da'vo arizasining ko'chirma nusxasi va unga ilova qilingan hujjatlar javobgarga va uchinchi shaxslarga "yuborilganligini tasdiqlovchi hujjat" ilova qilinadi. Shuningdek, agar da'vo arizasining ko'chirma nusxasi topshirilganligini tasdiqlovchi hujjatda bunday sana ko'rsatilmagan bo'lsa, qanday oqibat keltirib chiqarishini ham aniqlashtirish maqsadga muvofiq.

Da'vo arizasini ish yuritishga qabul qilish va ish qo'zg'atish to'g'risida sud ajrim chiqaradi, ajrimda ish soddalashtirilgan ish yuritish tartibida ko'rib chiqilishini hamda ish ko'rib chiqiladigan sanani ko'rsatadi. Biroq taraflar chaqirilmaydi va sud muhokamasi o'tkazilmaydi. Ish yuritishning soddalashtirilganligi ham aynan mana shunda ko'rinadi, deb o'ylayman. Shu jihatidan buyruq tartibida ish yuritishga o'xshab ketsa-da, yuqorida bu ikki turdagi ish yuritishning farqli jihatini keltirib o'tdik. Taraflarning chaqirilmashligi va sud muhokamasining o'tkazilmashligi ishning soddalashtirilgan tartibda yuritilishning o'ziga xos xususiyatlaridan deyishimiz mumkin. Aynan shu sababli ish "soddalashtirilgan" va ishni ko'rib chiqishda vaqtning tejallishiga, ish muhokamasi uzoq vaqtga cho'zilib ketmasdan, tezkor hal bo'lishiga olib keladi. Soddalashtirilgan ish yuritish tartibidagi ochiq qolgan masalalardan yana biri: ish yuritishda sud majlisi bo'lishi yoki bo'lmasligi to'g'risida ham qonunchilikda aniq qayd etilmaganligi. Agar belgilangan sanada taraflardan biri sud majlisiga kelsa sud qanday harakat qilishi kerak degan savolga aniq javob mavjud emas. Mana shunday holatda qonunchiligimizda sud majlisi taraflarning ishtirokini rad etishi uchun huquqiy asos mavjud emas. Faqatgina yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, sud muhokamasi sud majlisida amalga oshiriladi va shu sababli ham soddalashtirilgan tartibdagi ish yuritishda sud muhokamasi bo'lmasligi lozim. Iqtisodiy protsessual kodeksning 203 2- moddasi ikkinchi qismida "javobgarining roziligi" bilan boshqa ishlar soddalashtirilgan tartibda ko'rilishi mumkinligi aytilgan. "Javobgarining roziligi" jumlasini amaliyotda talqin etishda ikki xil yondashuv paydo bo'lishi mumkin. Birinchisi, javobgarining da'vo arizasi ko'chirma nusxasini olgandan so'ng yozma fikr taqdim etmasligi, ya'ni hech qanday e'tirozlar bildirmaslik yoki

soddalashtirilgan tartibda ko'rib chiqishga yozma rozilik berish shaklida bo'lishi mumkin. Shu sababli ham qonunchilikda javobgarning roziligi qanday shaklda bo'lishi aniq ko'rsatilishi kerak.

Bundan tashqari, huquqshunos amaliyotchi Sh.Nazarov ham soddalashtirilgan ish yuritish tartibiga oid xorij tajribasini o'rgangan holda Germaniya qonunchiligiga ko'ra, talab summasidan qat'i nazar, arizalar undiruvchining yashash joyidagi sudga taqdim etilishini, ikki hafta ichida qarzdor qarzini to'lashi yoki bu bo'yicha e'tirozlarini taqdim etishi shartligini, agar shu muddat mobaynida qarzdordan e'tiroz kelib tushmasa, sud undiruvchi talablarining asosli ekanligini tekshirmasligini, talabning nizosiz ekani qonunda belgilangan muddatga qarzdor undiruvchining talablariga e'tiroz bildirmasligida hamda ishni odatdagi jarayonda ko'rishni talab qilmasligida ko'rinishini ta'kidlaydi<sup>19</sup>. Bundan ko'rinib turibdiki, xorijda qarzdorning e'tiroz bildirmasligining o'zi sud tomonidan undiruvchi talablarining asosli ekanligi tekshirilmadan ishni ko'rib chiqishiga asos hisoblanishi mumkin.

Soddalashtirilgan ish yuritish tartibida ko'rib chiqiladigan ish bo'yicha hal qiluv qarori O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksida nazarda tutilgan umumiy qoidalarga ko'ra, soddalashtirilgan tartibda ish yuritishning o'ziga xos xususiyatlari hisobga olingan holda sud tomonidan chiqariladi.

Soddalashtirilgan ish yuritish tartibida ko'rib chiqilgan ish bo'yicha hal qiluv qarori ixtiyoriy ijro etiladi va apellatsiya shikoyati (protesti) berilmagan bo'lsa, o'n kun muddatda qonuniy kuchga kiradi. Ushbu hal qiluv qarori ustidan apellatsiya tartibida ish apellatsiya shikoyati sudga kelib tushgan kundan e'tiboran o'n besh kun ichida ko'rib chiqiladi. Qonunchiligimizda birinchi instansiyada ishlar soddalashtirilgan tartibda ko'rib chiqilsada, ushbu sud qarorlari ustidan apellatsiya, kassatsiya va nazorat instansiyalarida ko'rib chiqishning alohida xususiyatlari borligi qayd etib o'tilmagan. N.Azizovning fikricha, IPKning apellatsiya instansiyasida ish yuritish haqidagi bobida apellatsiya shikoyatini (protestini) ish yuritishga qabul qilish to'g'risidagi ajrimda apellatsiya shikoyatini ko'rish bo'yicha sud majlisini o'tkazish vaqti va joyi ko'rsatiladi. Ammo birinchi instansiya sudida sud muhokamasi bo'lmasdan, taraflar ishtirok etmagan holda sud ishni ko'rib chiqqan bo'lsada, apellatsiya instansiya sudida taraflarning ishtirok etishi maqsadga muvofiqmi? Shu o'rinda o'z shaxsiy fikrimni bayon etib o'tsam. O'ylashimcha, birinchi instansiya sudida sud muhokama o'tkazmasdan, taraflarni chaqirmasdan 29 ishni ko'rib chiqqan bo'lishiga qaramay apellatsiya instansiyasida taraflarning chaqirilishi to'g'ri bo'ladi. Chunki birinchi instansiyaning hal qiluv qaroridan norozi bo'lgan tarafgina apellatsiya shikoyati (protesti) beradi va bu taraf apellatsiya instansiyasida shaxsan qatnashishi hamda o'z e'tirozlarini sudga bevosita

tushuntirib berishi faqat va faqat adolatli qaror chiqarilishiga xizmat qiladi. Apellatsiya instansiyasining aynan soddalashtirilgan tartibda ko'riladigan ishlar uchun qay tartibda o'tkazilishiga qonunchilikda hech qanday to'xtalish yo'q. Ushbu kamchilikni ikki yo'ldan biri orqali to'ldirish maqsadga muvofiq bo'lar edi deb o'ylaymiz: yoki IPKning apellatsiya instansiyasi bobiga soddalashtirilgan tartibda ko'rilgan ishlarni apellatsiya instansiyasida ko'rish haqidagi qoida ishlab ishlab chiqilib, bobga qo'shimcha qilinsin; yoki "soddalashtirilgan tartibda ko'rib chiqilgan ishlar ham apellatsiya instansiyasida umumiy tartibdagi ishlar kabi ko'riladi va qaror qabul qilinadi" degan qo'shimcha qoida kiritilsin. Eng maqbul yo'l sifatida ikkinchi qoidani ko'rsatgan bo'lar edik, chunki kodeksda amaldagi qoidadan soddalashtirilgan ish yuritish tartibida qabul qilingan hal qiluv qarori apellatsiya instansiyasida umumiy tartibdagi ishlar kabi ko'rib chiqilishi haqidagi mazmun kelib chiqadi. Shu sababdan alohida qoida ishlab chiqib, uni bobga qo'shgandan ko'ra, normaga yuqoridagicha qoidani qo'shimcha qilish osonroq. Shuning bilan birga qonunchilikda apellatsiya instansiyada zarur hollar yuz bermaganda taraflar ishtirokisiz ishlarni ko'rib chiqish haqida ham qo'shimcha qilinishi maqsadga muvofiq bo'ladi. O'ylab qaralganda, soddalashtirilgan tartibda ish yuritish faqat birinchi instansiya uchun taalluqlidek ko'rinadi. Apellatsiya instansiyasida ham bu toifadagi ishlar qisqa o'n besh kunlik muddatda ko'rib chiqiladi, lekin bu faqatgina muddatni soddalashtirish hisoblanadi. Iqtisodiy sudlarda ishlarni apellatsiya va kassatsiya tartibida hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining iqtisodiy ishlar bo'yicha sudlov hay'atida apellatsiya, kassatsiya va nazorat tartibida ko'rish uch nafar sudyadan iborat hay'atda amalga oshiriladi. N.Azizovning o'z maqolasida bergan taklifiga ko'ra, soddalashtirilgan tartibda ish yuritish natijasi o'laroq qabul qilingan hal qiluv qarori keyinchalik ham yuqori instansiyalarda sudya tomonidan yakka tartibda taraflarni chaqirtirmasdan 30 ko'rilishini joriy etish nazarda tutiladi. Shuningdek, ko'rilayotgan masalaning murakkabligi va xarakteridan kelib chiqib hamda apellatsiya shikoyatidagi e'tirozlarni hisobga olib apellatsiya sudi majlisiga taraflarni chaqirish tizimi yo'lga qo'yilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi<sup>25</sup>. Keltirilgan taklifning birinchi qismiga o'z e'tirozimni bildirgan holda soddalashtirilgan tartibda ish yuritish natijasida qabul qilingan hal qiluv qarori yuqori instansiyalarda uch nafar sudyadan iborat hay'atda ko'rib chiqilishi haqidagi qoida o'zgartirilmaligi tarafdoriman. Chunki ishning bir nafar emas, uch nafar sudyadan iborat tarkibda ko'rib chiqilishi adolatli qaror qabul qilinishiga ko'proq imkoniyat yaratadi. Bildirilgan keyingi taklifni qo'llab quvvatlayman. Bu haqda yuqorida ham fikr bildirib o'tdim. Apellatsiya sudi majlisiga taraflarning chaqirilishi, masala xususida shaxsan og'zaki



tushuntirishlar olish ham sudyalarda tomonidan adolatli qaror chiqarilishiga yordam beradi.

Shuningdek, IPKning 278-moddasiga asosan apellatsiya instansiya sudi apellatsiya shikoyatlarini ko'rish natijalari bo'yicha agar IPKning 279-moddasi to'rtinchi qismi 4-bandida nazarda tutilgan asos mavjud bo'lgan taqdirda hal qiluv qarorini bekor qilishga va ishni yangidan ko'rish uchun yuborishga haqli. Bular protsessual huquq normalarining buzilganligi yoki noto'g'ri qo'llanilganligi munosabati bilan birinchi instansiya sudining hal qiluv qarorini har qanday holda bekor qilish uchun asoslar hisoblanadi. Masalan, sud tomonidan ishning qonunga xilof tarkibda ko'rilganligi, sud ishi yuritilayotgan til to'g'risidagi qoidalar ishni ko'rish chog'ida buzilganligi, ishda sud majlisi bayonnomasining mavjud emasligi va h.k. Shu o'rinda savol tug'ilishi tabiiy: soddalashtirilgan tartibda ish yuritilganda ham sud majlisi bayonnomasi tuzilishi kerakmi? Bunday tartibdagi ishlarda sud majlisi o'tkazilmasligi ma'lum. Sud majlisi o'tkazilmasdan qanday qilib bayonnoma rasmiylashtirilishi mumkin? Amaliyotdan ma'lum, ish soddalashtirilgan tartibda ko'rilganda sud majlisi bayonnomasi yuritilmaydi. Bayonnoma yuritilmagan holda bayonnomaning yuritilmaganligi natijasida hal qiluv qarori bekor qilinishi mumkinligi anglashilmovchiliklarga sabab bo'ladi. Shuning uchun IPKning 279- moddasi 4-qismi 6-bandiga soddalashtirilgan tartibda ish yuritishning istisno ekanligi haqidagi qoida qo'shimcha qilinishi kerak.

Iqtisodiy protsessual qonunchiligini va amaliyotini rivojlantirish yuzasidan takliflar. Birinchidan, iqtisodiy sudda soddalashtirilgan tartibda ish yuritishda javobgar da'vo arizasi yuzasidan o'n besh kunlik muddatda yozma fikr taqdim etishi kerak. Belgilangan muddat o'tganidan keyin sudga kelib tushgan da'vo arizasi yuzasidan yozma fikr, dalillar va boshqa hujjatlar, agar ularni belgilangan muddatda taqdim etishning imkoni bo'lmaganligi taraf tomonidan asoslantirilgan va ular sud tomonidan hal qiluv qarori qabul qilingunga qadar kelib tushgan bo'lsa, qabul qilinadi. Qonunda asoslantirilmagan holatlarda sud qanday harakatni amalga oshirishi haqida aohida to'xtalib o'tilmagan. Shu sababdan, agar belgilangan muddat o'tganidan keyin sudga kelib tushgan da'vo arizasi yuzasidan yozma fikr, dalillar va boshqa hujjatlar, ularni belgilangan muddatda taqdim etishning imkoni bo'lmaganligi asoslantirilmasa, sud tomonidan ko'rib chiqilmasdan tarafdorga qaytarilishi to'g'risida ajrim chiqarilishi kerak deb o'ylayman. Ikkinchidan, soddalashtirilgan tartibda ko'rilgan ish natijasi yuzasidan qabul qilingan hal qiluv qarori ustidan berilgan apellatsiya shikoyatini ko'rishda ko'rilayotgan masalaning xarakteridan kelib chiqib hamda apellatsiya shikoyatidagi e'tirozlarni hisobga olib apellatsiya sudi majlisiga tarafdorni chaqirmaslik tizimini 53 yo'lga qo'yish

taklif qilinadi. Ushbu o'zgarish orqali apellatsiya instansiyada ham ishni soddalashtirish tizimi yo'lga qo'yiladi, degan fikrdamiz. Uchinchidan, IPKda korporativ nizolar va huquqiy ta'sir chorasini qo'llash to'g'risidagi masalalar soddalashtirilgan tartibda ko'rib chiqilishi mumkin emasligi keltirilgan. Rossiya va Ukraina tajribasidan kelib chiqib, intellektual mulk bilan bog'liq nizolarni ham soddalashtirilgan tartibda ko'rish mumkin emasligi haqidagi qoidani bizning qonunchiligimizga ham kiritishni taklif qilaman. To'rtinchidan, ishni soddalashtirilgan tartibda ko'rish chog'ida, ya'ni protsess boshlanib bo'lganidan keyin ishga aloqador uchinchi shaxs ariza yoxud iltimosnoma bilan murojaat qilsa, qonun analogiyasi qo'llanilib, ishni ko'rish da'vo ishini yuritishning umumiy qoidalari bo'yicha amalga oshiriladi. Fikrimizcha, Rossiya Federatsiyasi APKdagi kabi shunday holat yuzaga kelganida sudya tomonidan ishni umumiy tartibda ko'rib chiqish to'g'risidagi ajrim chiqarilishi haqidagi qoidaning bizning IPKga kiritilishi amaliyotda samarali natija beradi, yuqoridagi kabi holatda sudyalardan turlicha harakatlar amalga oshirilishining oldi olinadi. Beshinchidan, da'vog'ar nomulkiy tuzdagi da'vo yuzasidan ishni soddalashtirilgan tartibda ko'rib chiqish to'g'risida iltimosnoma kiritdi, javobgar ham bunga rozi. Bunday holatda ish soddalashtirilgan tartibda ko'rib chiqilishi mumkinmi? Mazkur savolga qonunda aynan va asosli javob mavjud emas. Ishni ko'ruvchi sudyalardan va boshqa shaxslarda mana shu kabi savollar tug'ilmasligi uchun qonunda bu narsaning aniq ko'rsatib qo'yilishi ayni muddaodir. Shu sababdan qonunchilikka nomulkiy nizolar soddalashtirilgan tartibda ko'rib chiqilishi mumkin emas, degan qoida kiritilishini taklif qilaman. Oltinchidan, IPKning 279-moddasi 4-qismi 6-bandida – ishda sud majlisi bayonnomasining mavjud emasligi, uning imzolanmaganligi yoki ... boshqa shaxslar tomonidan imzolanganligi protsessual huquq normalarining buzilganligi yoki noto'g'ri qo'llanilganligi munosabati bilan birinchi instansiya sudining hal qiluv qarorini har qanday holda bekor qilish uchun asos bo'lishi keltirilgan. Ammo soddalashtirilgan tartibda ish yuritilganda sud majlisi bayonnomasi yuritilmaydi. Soddalashtirilgan tartibda ko'rilgan ish natijasi yuzasidan qabul qilingan hal qiluv qarori ustidan shikoyat berilganda mazkur asos bilan qaror bekor qilinishi mumkinmi? Mazkur bahsli masalani huquqiy jihatdan tartibga solish uchun IPKning 279-moddaning 4-qismi 6-bandiga "... soddalashtirilgan tartibda ko'rilgan ishlar bundan mustasno" jumlasini kiritilishini taklif qilaman. O'ylaymanki, mazkur qoidaning kiritilishi kodeksdagi kamchilikni to'ldirishga, tushunmovchiliklarning oldi olinishiga sabab bo'ladi. Yettinchidan, bizning amaliyotda soddalashtirilgan tartibda ish yuritish natijalari bo'yicha chiqarilgan hal qiluv qarori umumiy tartibdagi ish yuritish natijasida chiqarilgan hal qiluv qarori bilan bir xil. Rossiya tajribasidan foydalanib, bunday tartibda

ishni ko'rish natijalari bo'yicha hal qiluv qarorlarini yana ham qisqartirishni taklif sifatida kiritaman. Hal qiluv qarori faqat asoslantiruvchi va xulosa qismlaridan iborat tartibda chiqarilsa, soddalashtirilgan tartibning o'ziga xosligi undagi hal qiluv qarorida ham namoyon bo'lar edi. Sakkizinchidan, ko'pchilik amaliyotchilar fikricha, da'vo bahosi BHMning tegishli baravaridan kam bo'lgan barcha holatlar soddalashtirilgan tartibda ko'rilishi shartligi haqidagi qoidaning "shart" qismini "mumkin" deb almashtirishdan iborat. Ya'ni yuridik shaxslar o'rtasidagi nizo BHM ning yigirma baravaridan, yakka tartibdagi tadbirkorlarga nisbatan esa BHMning besh baravaridan kam bo'lgan holatda ishda ishtirok etuvchi taraflar ishni soddalashtirilgan tartibda ko'rishni istamasa, qanday yo'l tutilishi kerak? Kodeksda bunday toifadagi ishlarning soddalashtirilgan tartibda ko'rib chiqilishi shartligi haqidagi qoidadan kelib chiqib, bu ish soddalashtirilgan tartibda ko'rilishi shart. Lekin ishda ishtirok etuvchi taraflarning xohishi inobatga olinmasligi qanchalik to'g'ri? Mazkur yondashuvdan kelib chiqib, qoidadagi "...soddalashtirilgan tartibda ko'rib chiqilishi lozim" qismi "...soddalashtirilgan tartibda ko'rib chiqilishi mumkin" deb o'zgartirilishi maqsadga muvofiq.